e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)

Article / Original paper https://doi.org/10.67227/qrd5ex11

O‘ZBEKISTON MAKTABLARIDA MAKTAB MASLAHATCHISI INSTITUTINING SHAKLLANISHI: IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ADAPTATSIYA VA KASBIY IDENTIFIKATSIYA MASALALARI

Teshaboyev Inomjon Adxamjonovich

Farg‘ona viloyati pedagogik mahorat markazi, dotsent.
e-mail: inomjonteshaboev2025@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0000-0400-041X

Annotatsiya.

Maqolada O‘zbekiston maktablarida maktab maslahatchisi institutining shakllanishi ijtimoiy-psixologik moslashuv va kasbiy identifikatsiya nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida 81 nafar maktab maslahatchisi o‘rtasida so‘rovnoma hamda 28 nafar maslahatchi bilan intervyu o‘tkazilgan. Olingan natijalar maktab maslahatchilarining vazifalari va vakolatlari yetarlicha aniqlashtirilmaganini, zarur resurslar yetishmasligini hamda mazkur lavozimning jamiyatdagi ijtimoiy qabul qilinishi to‘liq shakllanmaganini ko‘rsatgan. Shuningdek, maqolada maktab maslahatchisi institutini mustahkamlash, uning faoliyatini takomillashtirish va kasbiy maqomini oshirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: maktab maslahatchisi, kasbiy identifikatsiya, ijtimoiy-psixologik moslashuv, rol noaniqligi, maktab psixologi, kasbga yo‘naltirish, malaka oshirish, intervyu.

СТАНОВЛЕНИЕ ИНСТИТУТА ШКОЛЬНОГО КОНСУЛЬТАНТА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА: ВОПРОСЫ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ АДАПТАЦИИ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ

Тешабоев Иномжон Адхамжонович

Центр педагогического мастерства Ферганской области, доцент.

Аннотация.

В статье анализируется процесс становления института школьного консультанта в общеобразовательных школах Узбекистана с точки зрения социально-психологической адаптации и профессиональной идентификации. В рамках исследования проведён анкетный опрос 81 школьного консультанта, а также интервью с 28 консультантами. Полученные результаты выявили недостаточную определённость должностных обязанностей и полномочий школьных консультантов, нехватку необходимых ресурсов и недостаточную сформированность общественного восприятия данной должности. Кроме того, в статье предложены меры по укреплению института школьного консультанта, совершенствованию его деятельности и повышению профессионального статуса.

Ключевые слова: школьный консультант, профессиональная идентификация, социально-психологическая адаптация, ролевая неопределённость, школьный психолог, профессиональная ориентация, повышение квалификации, интервью.

THE ESTABLISHMENT OF THE SCHOOL COUNSELOR INSTITUTION IN UZBEKISTAN’S SCHOOLS: ISSUES OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL ADAPTATION AND PROFESSIONAL IDENTITY

Teshaboyev Inomjon Adxamjonovich

Fergana Regional Center for Pedagogical Excellence, Associate Professor.

Abstract.

This article examines the establishment of the school counselor institution in Uzbekistan’s schools from the perspectives of socio-psychological adaptation and professional identity. The study involved a questionnaire survey of 81 school counselors and interviews with 28 counselors. The findings revealed insufficient clarity regarding school counselors’ responsibilities and authority, a lack of necessary resources, and the limited development of social acceptance of this professional position. The article also proposes measures to strengthen the school counselor institution, improve its functioning, and enhance its professional status.

Keywords: school counselor, professional identity, socio-psychological adaptation, role ambiguity, school psychologist, career guidance, professional development, interview.

ISSN 3060-5059 (Online)

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning psixologik o'sishi, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash ta'lim sifatining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Jahon amaliyotida bu vazifa maktab maslahatchisi (school counselor) instituti orqali amalga oshiriladi. AQSHda bu kasb XX asrning boshlarida kasbga yo'naltirish harakati doirasida shakllana boshlagan va bugungi kunda Amerika maktab maslahatchilari assotsiatsiyasi (ASCA) Milliy modeli kabi me'yoriy asosga ega bo'lgan mustaqil kasbiy sohaga aylangan [1]. Shuningdek, maktab maslahatchisi xizmati Kanada, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Janubiy Koreya va boshqa ko'plab davlatlarda uzoq yillardan beri amal qiladi [1].

O'zbekistonda bunday lavozim bugungi kunga qadar mavjud emas edi, lekin zamon taqozosi bilan bugungi kunda bu lavozim maktablarda joriy etildi. Respublikamizda maktab maslahatchisi lavozimining joriy etilishi milliy ta'lim tizimi uchun sifat jihatidan yangi bosqichni anglatadi [2]. Bu lavozim an'anaviy maktab psixologi faoliyatidan mazmun va vazifalar doirasi jihatidan farq qiladi: u o'quvchilarning o'quv, shaxsiy-ijtimoiy va kasbiy yo'nalishdagi ehtiyojlarini yaxlit qamrab olishni nazarda tutadi. Shu sababli lavozimning rasman joriy etilishi o'z-o'zidan yangi kasbiy institutning shakllanganini anglatmaydi. Buning uchun xizmatning vazifalari ta'lim jamoasi tomonidan tushunilishi va qabul qilinishi, maslahatchining o'zida esa kasbiy identiklik shakllanishi lozim.

Xorijiy tadqiqotlarda yangi joriy etilgan kasbiy rollarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari keng o'rganilgan. Maktab maslahatchisi kasbiy identikligining shakllanish bosqichlari Brott va Myers (1999) tomonidan, rollar noaniqligi va nazariy modellar bilan amaliyot o'rtasidagi nomuvofiqlik Burnham va Jackson (2000) tomonidan tahlil qilingan [3; 4]. Bu ishlarda maslahatchi vazifalarining noaniqligi, ma'muriyat va o'qituvchilar kutilmalarining nomutanosibligi, kasbiy doiradan tashqari vazifalarning yuklanishi kasbiy stress va identiklikning sustlashuviga olib keluvchi asosiy omillar sifatida ko'rsatilgan. Kasbiy identiklikni o'rganishga rus psixologiya maktabida ham katta e'tibor berilgan (Ye. A. Klimov, L. B. Shneyder, A. K. Markova, N. S. Pryajnikov va boshqalar) [5; 6; 7; 8]. Ijtimoiy-psixologik moslashuv muammolari K. Rodjers va R. Daymond, A. A. Nalchajyan hamda A. A. Rean asarlarida yoritilgan [9; 12; 13]. K. Rodjers va R. Daymond ijtimoiy-psixologik moslashuvni shaxsning yangi ijtimoiy muhitga moslashuvi va shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq jarayon sifatida tahlil qilgan; A. A. Nalchajyan moslashuvning shakllari, mexanizmlari va strategiyalarini, A. A. Rean esa moslashuvning nazariy asoslarini, shaxs ijtimoiylashuvi hamda pedagogik-psixologik munosabatlar bilan bog'liqligini yoritgan. O'zbek olimlari ishlarida aynan maktab maslahatchilari faoliyatini o'rganishga oid tadqiqotlarni uchratmadik. Buning sababini bu lavozimning O'zbekiston ta'lim tizimiga endigina kirib kelganligi bilan izohlash mumkin.

Dunyoda ko'plab tadqiqotlar mavjud bo'lishiga qaramay, ilmiy adabiyotlarda bir qator bo'shliqlar saqlanib qolmoqda. Birinchidan, tadqiqotlarning aksariyati maslahatchilik instituti ancha barqaror shakllangan mamlakatlar kontekstida o'tkazilgan. Bu kontekst esa O'zbekiston ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlarini, ya'ni markazlashtirilgan boshqaruv, kuchli iyerarxik munosabatlar hamda oila va mahalla institutlarining ta'lim jarayonidagi rolini to'liq aks ettirmaydi. Ikkinchidan, O'zbekistonda maktab maslahatchilarining kasbiy moslashuvi va identifikatsiyasiga oid empirik tadqiqotlar deyarli mavjud emas. Uchinchidan, yangi institut shakllanayotgan bosqichda maslahatchilarning o'z kasbiy rolini qanday idrok etishi, hamkasblar va ma'muriyat bilan munosabatlarda qanday qiyinchiliklarga duch kelishi hamda bu omillarning kasbiy identiklik bilan bog'liqligi yetarlicha o'rganilmagan.

Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekiston maktablarida maktab maslahatchisi instituti shakllanish jarayonining ijtimoiy-psixologik moslashuv va kasbiy identifikatsiya jihatlarini aniqlashdir.

Tadqiqot malaka oshirish kurslarida ishtirok etgan maktab maslahatchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma va yarim tuzilmali intervyuga asoslandi. Tadqiqotda Farg'ona viloyatidagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan 81 nafar maktab maslahatchisi ishtirok etdi.

Tadqiqotning sifat bosqichida yarim tuzilmali intervyu usulidan foydalanildi. Intervyu savollari to'rt mantiqiy blokdan iborat bo'lib, jami 12 ta savolni o'z ichiga oldi: lavozimning mohiyati va faoliyat yo'nalishlari; o'quvchilar va ijtimoiy muhit bilan ishlash; hamkorlik va muammolar; natijalar va kelajakdagi takliflar. Intervyuda Farg'ona viloyati maktablarida ishlovchi 28 nafar maktab maslahatchisi ishtirok etdi.

Javoblarni dastlabki guruhlash, tavsifiy statistik ko'rsatkichlarni hisoblash, diagramma va jadvallarni tayyorlash hamda matnni tahrir qilishda sun'iy intellekt vositasidan yordamchi sifatida foydalanildi.

So'rovnomada jami 81 nafar maktab maslahatchisi ishtirok etdi. Respondentlarning ish staji bo'yicha taqsimoti quyidagicha: 10 yildan ortiq tajribaga ega bo'lganlar eng katta ulushni tashkil etdi (38,3%), 1–5 yil stajga ega bo'lganlar 23,5%, 1 yilgacha stajga ega bo'lganlar 22,2%, 5–10 yil stajga ega bo'lganlar esa 16,0% ni tashkil qildi. Respondentlarning deyarli 40 foizi tajribali mutaxassislar bo'lib, bu natijalarning ishonchliligini oshiradi. Shu bilan birga, qariyb har to'rtinchi respondent (22,2%) yangi boshlovchi maslahatchidir.

So'rovnomada ishtirok etgan maktab maslahatchilarining mutaxassislik bo'yicha tarkibi xilma-xil ekani aniqlandi. Respondentlarning eng katta qismi (17,3%) aniq va tabiiy fanlar hamda geografiya yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olgan. Pedagogika-psixologiya yo'nalishida ma'lumotga ega bo'lganlar 13,3% ni, tarix, huquq va milliy g'oya yo'nalishidagilar ham 13,3% ni, texnik va mehnat ta'limi yo'nalishidagilar 12,0% ni tashkil etdi. Qolgan respondentlar jismoniy madaniyat va harbiy ta'lim (9,3%), boshlang'ich ta'lim (8,0%), informatika (6,7%), filologiya (6,7%), san'at va madaniyat (5,3%) hamda iqtisod (2,7%) mutaxassisliklariga ega.


Natijalar shuni ko'rsatadiki, maktab maslahatchilarining aksariyati (taxminan 87%) bevosita psixologiya yo'nalishida ma'lumot olmagan, ya'ni ular boshqa fan o'qituvchilari yoki boshqa soha mutaxassislaridir. Bu holat maslahatchilik faoliyatini amalga oshirishda kasbiy-psixologik tayyorgarlik masalasini dolzarb qilib qo'yadi va qayta

tayyorlash hamda malaka oshirish kurslariga ehtiyojni ko‘rsatadi.

Respondentlarning ushbu lavozimgacha bo‘lgan mehnat faoliyati tahlil qilinganda, ularning aksariyati ta’lim tizimida faoliyat yuritganligi aniqlandi. Eng katta qismini turli fan o‘qituvchilari tashkil etdi (35,6%). Maktab rahbariyati tarkibida ishlagan, asosan ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari bo‘lgan mutaxassislar 20,5% ni, psixologlar 8,2% ni, “Kelajak” markazi xodimlari 2,7% ni tashkil qildi. Shunday qilib, respondentlarning qariyb uchdan ikki qismi (67,1%) avval ham ta’lim sohasida faoliyat yuritgan.

Yoshlar ishlari agentligi, hokimiyat va mahalla tizimidan kelganlar 9,6% ni, bank, ishlab chiqarish, huquq va boshqa noma’lum sohalardan kelganlar 12,3% ni tashkil etdi. Respondentlarning 6,8% i ilgari ishlamagan, ya’ni oliy ta’limni tamomlab, to‘g‘ridan-to‘g‘ri maktab maslahatchisi lavozimidan mehnat faoliyatini boshlagan. Bu ma’lumotlar maktab maslahatchisi lavozimiga kadrlar turli kasbiy tajriba va yo‘nalishlardan kelayotganini ko‘rsatadi.

1-rasm



Respondentlardan maktab maslahatchisi lavozimi vazifalarini qanchalik aniq tasavvur qilishlari 5 ballik shkala bo‘yicha so‘raldi (1-rasm). Natijalar shuni ko‘rsatdiki, hech bir respondent 1 va 2 ball bermagan. 39 nafar (48,1%) respondent o‘z vazifalarini “juda aniq” (5 ball), 29 nafari (35,8%) “aniq” (4 ball), 13 nafari (16,0%) esa “o‘rtacha” (3 ball) deb baholagan. O‘rtacha ball 4,32 ni tashkil etdi (me’yoriy og‘ish 0,74; mediana 4).

Respondentlarning 84,0 foizi (68 nafar) yuqori baho (4 va 5 ball) bergan. Bu ko‘pchilik maslahatchilarda lavozim vazifalari bo‘yicha umumiy tasavvur shakllanganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, har oltinchi respondent (16,0%) o‘z vazifalarini faqat o‘rtacha darajada aniq tasavvur qiladi, bu esa lavozim mohiyatini tushuntirish, metodik yo‘riqnomalar va malaka oshirish ishlarini davom ettirish zarurligini bildiradi.

Respondentlardan maktab maslahatchisi va maktab psixologi vazifalari o‘rtasidagi asosiy farq nimada ekanini erkin shaklda yozish so‘raldi. Javoblar mazmuniy tahlil usulida guruhlandi (1-jadval).

1-jadval. Maslahatchi va psixolog vazifalari o‘rtasidagi farq haqidagi tasavvurlar (n = 81)

№	Javoblar mazmuni	Soni	Foiz
1	Ikkala lavozim farqlangan (psixolog – ruhiy holat, maslahatchi – qiziqish, iqtidor va kasbga yo‘naltirish)	26	31,3%
2	Faqat maslahatchi vazifalari ko‘rsatilgan	20	24,1%
3	Faqat psixolog vazifalari ko‘rsatilgan	6	7,2%
4	Umumiy «o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash»	7	8,4%
5	Vazifalar bir-biriga yaqin yoki farq yo‘q	5	6,0%
6	Aniq farq ko‘rsatilmagan	17	22,9%
	Jami	**81**	**100%**

Tahlil qilingan 83 ta javobning 64 tasi (77,1%) mazmunli bo‘lib, qolgan 19 tasi (22,9%) aniq farqni ko‘rsatmagan yoki mavzudan tashqari bo‘lgan.

Mazmunli javoblar orasida eng keng tarqalgan tasavvur shundan iborat: psixolog o‘quvchining ruhiy holati bilan, maslahatchi esa uning qiziqishi, iqtidori va kasbiy yo‘nalishi bilan ishlaydi (31,3%). Yana 24,1% respondent faqat

ISSN 3060-5059 (Online)

maslahatchining vazifalarini (iqtidorni aniqlash, kasbga yo‘naltirish, to‘garaklarga jalb etish) sanagan. Bir respondent farqni “psixolog ruhiy holat bilan ishlaydi, maslahatchi rivojlanish va imkoniyatlar bilan ishlaydi” deb ifodalagan. Bir nechta respondent psixolog asosan murakkab psixologik holatdagi o‘quvchilar bilan, maslahatchi esa barcha o‘quvchilar bilan ishlashini ta’kidlagan. Bu maslahatchi faoliyati asosan rivojlantiruvchi va yo‘naltiruvchi xarakterda ekanini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, respondentlarning 6,0 foizi vazifalarni bir-biriga yaqin deb hisoblagan, ayrimlari esa maslahatchi ham o‘quvchining ruhiy holatini aniqlaydi deb yozgan. Bu ikki lavozim o‘rtasidagi chegara amalda hali to‘liq shakllanmaganini va rol aniqligi masalasi dolzarb ekanini ko‘rsatadi. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari vazifalari bilan bog‘liq farq ushbu savolda so‘ralmagani sababli, bu yo‘nalish keyingi tadqiqotlar uchun ochiq qolmoqda.

Respondentlardan maktab maslahatchisiga eng ko‘p murojaat qilinadigan muammolar so‘raldi. Savol bir nechta variant tanlashga imkon bergani sababli, foizlar yig‘indisi 100% dan ortiq (2-rasm).


2-rasm



Eng ko‘p tanlangan muammo karyera (kasb) tanlash bo‘ldi: uni 41 nafar (50,6%) respondent qayd etgan. Deyarli shunday darajada, 39 nafar (48,1%) respondent o‘quvchilarning xulq-atvori buzilishi bilan bog‘liq murojaatlar bo‘lishini bildirgan. Oilaviy nizolar 11 nafar (13,6%), bulling esa 4 nafar (4,9%) respondent tomonidan ko‘rsatilgan.

Yana 9 nafar (11,1%) respondent o‘z javobini yozgan. Bu javoblarning barchasi kasb va ta’lim yo‘nalishini tanlash, to‘garaklarga jalb etish masalalari bilan bog‘liq. Demak, murojaatlarning asosiy qismi karyeraga yo‘naltirish sohasiga to‘g‘ri keladi, bu esa lavozimning rasmiy vazifalariga mos keladi.

Shu bilan birga, xulq-atvor buzilishi va oilaviy nizolar kabi holatlar bo‘yicha murojaatlar ham salmoqli. Bu muammolar odatda maktab psixologining vazifalari doirasiga kiradi. Respondentlarning qariyb yarmi (48,1%) bunday muammolar bilan ham ishlashini qayd etgani amalda maslahatchi faoliyati psixologik yo‘nalish bilan qisman kesishishi va ikki lavozim o‘rtasidagi chegaralar yaqinlashganidan dalolat berishi mumkin. Bu xulosa avvalgi savolga berilgan javoblar bilan mos keladi: respondentlarning bir qismi psixolog va maslahatchi vazifalarini bir-biriga yaqin deb hisoblagan. 3-rasm




Respondentlardan maktab ma’muriyati va o‘qituvchilar ular bilan qanchalik faol hamkorlik qilishini 5 ballik shkala

ISSN 3060-5059 (Online)

bo‘yicha baholash so‘raldi (3-rasm). O‘rtacha ball 4,02 ni tashkil etdi (standart og‘ish 1,20; mediana 4). Respondentlarning deyarli yarmi hamkorlikni “juda faol” (5 ball) deb baholagan: 38 nafar (46,9%). Yana 23 nafar (28,4%) 4 ball bergan. Shunday qilib, respondentlarning 75,3 foizi hamkorlikni yuqori baholagan. 9 nafar (11,1%) respondent o‘rta baho (3 ball) bergan.

Shu bilan birga, respondentlarning 13,6 foizi (11 nafar) hamkorlikni past baholagan: 6 nafari (7,4%) 2 ball, 5 nafari (6,2%) 1 ball bergan. Bu ko‘rsatkich kichik bo‘lsa-da, har yettinchi maslahatchi maktab jamoasi tomonidan yetarlicha qo‘llab-quvvatlanmayotganini bildiradi. Bu holat yozma takliflarda ham aks etgan: bir nechta respondent maktab rahbariyati va boshqa xodimlarga maslahatchi vazifalarini tushuntirish, ortiqcha topshiriqlardan ozod qilish va amaliy yordam ko‘rsatish zarurligini qayd etgan.

4-rasm



Respondentlardan maktab maslahatchisi lavozimining kelajagini, ya’ni maktab tizimida mustahkamlanishini 5 ballik shkala bo‘yicha baholash so‘raldi (4-rasm). Savolga 80 nafar respondent javob berdi. O‘rtacha ball 4,39 ni tashkil etdi (standart og‘ish 1,00; mediana 5). Respondentlarning aksariyati, ya’ni 51 nafari (63,7%) eng yuqori baho (5 ball) bergan, yana 17 nafari (21,3%) 4 ball bergan. Demak, respondentlarning 85,0 foizi lavozimning kelajagini yuqori baholagan. 6 nafar (7,5%) respondent o‘rta baho (3 ball), yana 6 nafari (7,5%) past baho (1 va 2 ball) bergan.

Bu natija ushbu tadqiqotda o‘rganilgan uchta shkala ichida eng yuqorisidir: lavozimning kelajagi o‘rtacha 4,39 ball, vazifalarning aniqligi 4,32 ball, maktab ma’muriyati va o‘qituvchilar bilan hamkorlik faolligi esa 4,02 ball bilan baholandi. Ya’ni maslahatchilar o‘z lavozimining istiqbolini ishonch bilan baholasa-da, kundalik hamkorlik sharoitini nisbatan pastroq baholamoqda. Bu lavozimning tizimda mustahkamlanishiga ishonch yuqori ekanini, shu bilan birga, uni amalda qo‘llab-quvvatlovchi sharoitlarni yaxshilash ehtiyoji mavjudligini ko‘rsatadi.

Respondentlardan maslahatchi lavozimi samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflarini erkin shaklda yozish so‘raldi. Javoblar mazmuniy tahlil usulida guruhlandi (2-jadval).

2-jadval. Maktab maslahatchisi lavozimi samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar

№	Takliflar yo‘nalishi	Soni	Foiz
1	Tarmoq to‘garaklari faoliyatini takomillashtirish (o‘qituvchilar oyligi, badal miqdori, o‘quvchilar soni, mas’uliyat taqsimoti)	14	18,7%
2	Vazifa, vakolat va boshqaruv tartibini aniq belgilash	11	14,7%
3	Hamkorlik va amaliy yordam (rahbariyat, tashkilotlar bilan)	8	10,7%
4	Moddiy-texnik ta’minot va mablag‘ (xona, jihozlar, interaktiv doska)	7	9,3%
5	Malaka oshirish, seminar, o‘z ustida ishlash	7	9,3%

6	Faoliyat mazmunini takomillashtirish (loyihalar, individual ish, natijani baholash, rejalashtirish)	7	9,3%
7	Ortiqcha yuklama, qog‘ozbozlikni kamaytirish va o‘quvchilar bilan ishlash uchun vaqt ajratish	6	8,0%
8	Taklif yo‘q yoki aniqlab bo‘lmaydigan javob	6	8,0%
9	Maslahatchi uchun maosh, imtiyoz va rag‘batlantirish	4	5,3%
10	Lavozimni targ‘ib qilish va maqomini tushuntirish	4	5,3%
11	Boshqa	1	1,3%
	Jami	**75**	**100%**

Eng ko‘p takliflar tarmoq to‘garaklari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan (18,7%). Ularning katta qismi to‘garak o‘qituvchilarining oylik ish haqi, o‘quvchilardan olinadigan badal miqdori va ular o‘rtasidagi nomutanosiblik masalalariga bag‘ishlangan. Bir respondent: *“Tarmoq to‘garak ochish mas’uliyatini faqat maktab maslahatchisiga emas, maktab direktorining vazifasiga ham kiritish kerak”*, deb yozgan. Bu maslahatchilar tarmoq to‘garaklarini tashkil etishda mas’uliyat va resurslar bilan bog‘liq cheklovlarni sezayotganini ko‘rsatadi.

Ikkinchi o‘rinda vazifalar, vakolatlar va boshqaruv tartibini aniq belgilash bo‘yicha takliflar turadi (14,7%). Respondentlar vazifalarni boshqa mutaxassislar faoliyatidan ajratish, vakolatlarni kengaytirish va maslahatchi faoliyatining boshqaruv tizimiga bog‘liqlik tartibini aniqlashtirishni so‘ragan. Qiziq jihati shundaki, so‘rovnomaning boshqa bandida respondentlarning 85,2 foizi normativ hujjatlarda vazifalar yetarlicha aniq belgilangan, deb javob bergan. Bu holat rasmiy hujjatlardagi aniqlik va amaliy faoliyatdagi rol chegaralari o‘rtasida farq mavjudligini ko‘rsatishi mumkin.

Hamkorlik va amaliy yordam (10,7%), moddiy-texnik ta’minot (9,3%), malaka oshirish (9,3%) va faoliyat mazmunini takomillashtirish (9,3%) bo‘yicha takliflar ham sezilarli ulushga ega. Ortiqcha yuklama va qog‘ozbozlikni kamaytirish haqidagi takliflar 8,0 foizni tashkil etdi. Respondentlar tadbirlarda “joy to‘ldirish” uchun chaqirilmaslik va “tekshirishdan oldin amaliy yordam berish”ni so‘ragan. Maslahatchilarning o‘z maoshlarini oshirish bo‘yicha takliflari nisbatan kam (5,3%).

Endi intervyu natijalarini sharhlashga o‘tamiz. Intervyu yozuvlari mavzuviy tahlil usulida o‘rganildi: javoblar savollar bloklariga ajratildi, takrorlanuvchi mavzular aniqlandi va so‘rovnoma natijalari bilan solishtirildi. Javoblar qisqacha mazmun shaklida qayd etilgani sababli, matnda keltirilgan iqtiboslar ishtirokchilar fikrining mazmuniy ifodasi bo‘lib, so‘zma-so‘z transkripsiya emas.

Lavozimning maqsadi va faoliyat yo‘nalishlari. Intervyu ishtirokchilari lavozimning asosiy maqsadini iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, ularni kasbga va oliy ta’limga yo‘naltirish, maktabdan tashqari ta’limni rivojlantirish, tarmoq to‘garaklarini tashkil etish hamda Prezident iqtidorli farzandlari dasturi mazmunini ommalashtirish deb ta’riflagan. Psixologdan farqi so‘ralganda, bir ishtirokchi lavozim “tarbiyasi og‘ir bolalardan ko‘ra ilmli bolalar bilan ishlashga yo‘naltirilgan” ekanini ta’kidlagan. Kundalik faoliyat sifatida sinflar kesimida so‘rovnomalar o‘tkazish, ekskursiya va davra suhbatlari tashkil etish, kasb egalari bilan uchrashuvlar o‘tkazish, chet el oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun portfolio tayyorlash, o‘quvchilar kengashini yo‘lga qo‘yish, ijtimoiy portfolioni rivojlantirish va bitiruvchilar bilan ishlash qayd etilgan. Ishtirokchilardan biri maqsadlar qatoriga Prezident maktablari tajribasini umumta’lim maktablariga joriy etishni ham kiritgan.

Murojaatlar. Maslahatchilarga murojaat qiladigan o‘quvchi va ota-onalarning asosiy murojaat mavzulari oliy ta’limga yo‘naltirish hamda o‘smirlik (o‘tish) davridagi muammolarni hal qilish bilan bog‘liq bo‘lgan.

Resurs va vakolat. Ishtirokchilar asosiy qiyinchiliklar sifatida alohida xonaning yo‘qligi va texnik bazaning yetishmasligini ko‘rsatgan. Ular o‘qituvchilar bilan ishlash o‘z vakolatlari doirasiga kirmasligini ham ta’kidlagan. Bir ishtirokchi lavozim maqomini direktor o‘rinbosari maqomiga tenglashtirish zarurligini bildirgan.

Metodik ta’minot. Ishtirokchilar maslahatchilar aniq, tizimli metodlardan foydalanmayotganini, debat tashkil etish bo‘yicha nizom mavjud emasligini, yagona standart so‘rovnoma yo‘qligini bildirgan. So‘rovnomalar qog‘ozda o‘tkazilishi kerak bo‘lsa-da, amalda Google Forms orqali yuborilmoqda.

Ijtimoiy tasavvur va bo‘ysunish. Ota-onalar va pedagogik jamoaning munosabati bir xil emas. Ayrimlar maslahatchining faoliyatini jiddiy qabul qilmaydi, masalan, “faqat yig‘ilishlarda yuribsizlar”, deb hisoblaydi. Ishtirokchilar lavozim haqida jamoatchilik fikri va to‘liq tushuncha shakllanmaganini qayd etgan. Bundan tashqari, maslahatchining kimga bo‘ysunishi (“Kelajak” markazi yoki maktab direktori) aniqlanmaganini alohida muammo sifatida ko‘rsatgan.

Takliflar. Ishtirokchilar bo‘ysunish tartibini aniq belgilashni, lavozimni chet el tajribasidagi tizimga o‘xshash shakllantirishni, direktor jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish yoki alohida maslahatchi jamg‘armasini tashkil etishni

taklif qilgan. Bir ishtirokchi buni tanlovlarda faqat faxriy yorliq bilan cheklanib qolinishi bilan izohlagan.

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston maktablarida maktab maslahatchisi institutining shakllanish jarayoni hali yakunlanmaganini, lavozim rasman joriy etilgan bo‘lsa-da, uning ijtimoiy-psixologik moslashuvi va kasbiy identifikatsiyasi davom etayotganini ko‘rsatdi.

Birinchidan, kasbiy tarkib bir xil emas. Respondentlarning aksariyati (taxminan 87%) psixologiya yo‘nalishida maxsus ta’lim olmagan, ular avval turli fan o‘qituvchilari, maktab rahbariyati xodimlari yoki boshqa sohalarda ishlagan. Shu bois lavozim kasbiy-psixologik tayyorgarlik tajribasi turlicha bo‘lgan kadrlar bilan shakllanmoqda.

Ikkinchidan, maslahatchilar o‘z vazifalarini yuqori darajada aniq tasavvur qilishlarini bildirgan (o‘rtacha 4,32 ball), lekin bu tasavvur ularni psixolog vazifalaridan farqlashda to‘liq namoyon bo‘lmadi: respondentlarning qariyb uchdan biri (31,3%) ikki lavozim o‘rtasidagi farqni aniq ifodalagan, har beshinchisi (22,9%) esa farqni ko‘rsata olmagan. Amaliyotda ham chegara aniq emas: lavozim rasman iqtidorni aniqlash va kasbga yo‘naltirishga qaratilgan bo‘lsa-da, respondentlarning 48,1 foizi o‘quvchilarning xulq-atvori buzilishi bo‘yicha ham murojaat olishini bildirgan. Bu holat xorijiy tadqiqotlarda tasvirlangan rol noaniqligi va rasmiy model bilan amaliyot o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosiga mos keladi [4].

Uchinchidan, maslahatchilar o‘z lavozimining kelajagini yuqori baholaydi (4,39 ball), ma’muriyat va o‘qituvchilar bilan hamkorlikni esa nisbatan pastroq baholaydi (4,02 ball). Respondentlarning har yettinchisi (13,6%) hamkorlikni past baho bilan belgilagan. Intervyu natijalari buni izohlaydi: ichki tasavvur (maslahatchining o‘z vazifasini anglashi) nisbatan shakllangan, tashqi tasavvur (ota-onalar, hamkasblar va ma’muriyatning qabul qilishi) esa hali to‘liq shakllanmagan. Ayrim hollarda maslahatchining faoliyati jiddiy qabul qilinmaydi.

To‘rtinchidan, so‘rovnoma va intervyu bir xil to‘siqlarni ko‘rsatdi: vazifa va vakolatlar chegarasining noaniqligi, kimga bo‘ysunish (maktab direktori yoki “Kelajak” markazi) tartibining belgilanmaganligi, xona va texnik bazaning yetishmasligi, tarmoq to‘garaklari tizimidagi moliyaviy va tashkiliy nomutanosiblik, aniq metodik hujjatlar (standart so‘rovnoma, debat bo‘yicha nizom) yo‘qligi. Bu omillar xorijiy adabiyotlarda kasbiy identiklik sustlashuvining asosiy sabablari sifatida ko‘rsatilgan omillarga yaqin [3; 4].

Shunday qilib, maktab maslahatchisi instituti O‘zbekistonda ichki motivatsiya va lavozim kelajagiga ishonch yuqori bo‘lgan holda shakllanmoqda. Uning barqaror kasbiy institutga aylanishi esa vazifa va vakolatlarning normativ jihatdan aniqlanishiga, kasbiy tayyorgarlikning mustahkamlanishiga va ta’lim jamoasi tomonidan lavozimning qabul qilinishiga bog‘liq.

Tadqiqot natijalarini sharhlashda quyidagi cheklovlarni hisobga olish kerak. Birinchidan, tanlanma Farg‘ona viloyatidagi malaka oshirish kursi ishtirokchilaridan iborat bo‘lib, natijalarni butun respublikaga umumlashtirib bo‘lmaydi. Ikkinchidan, so‘rovnoma natijalari o‘zini o‘zi baholashga asoslangan, kasbiy identifikatsiya esa standartlashtirilgan shkalalar bilan o‘lchanmagan. Uchinchidan, intervyu javoblari qisqacha mazmun shaklida qayd etilgan. To‘rtinchidan, hamkorlik va lavozim haqidagi tasavvurlar ma’muriyat, o‘qituvchilar va ota-onalar nuqtayi nazaridan o‘rganilmagan.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflar ilgari suriladi.

1. **Normativ-huquqiy jihatdan:** maktab maslahatchisining vazifalari, vakolat doirasi va bo‘ysunish tartibini (maktab direktori yoki “Kelajak” markazi) aniq belgilash; maslahatchi, maktab psixologi va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari vazifalari o‘rtasidagi chegarani hujjatlarda alohida ko‘rsatish; lavozimga kasbiy doiradan tashqari topshiriqlar (tadbirlarda “o‘rin to‘ldirish”, ortiqcha hujjatbozlik) yuklanishini cheklovchi qoidalar kiritish.

2. **Malaka oshirish tizimida:** psixologiya yo‘nalishida ta’lim olmagan maslahatchilar (respondentlarning taxminan 87%) uchun ijtimoiy-psixologik asoslar, kasbga yo‘naltirish metodikasi va o‘quvchilar xulq-atvori bilan ishlashning dastlabki usullari bo‘yicha modullarni malaka oshirish kurslariga kiritish, shuningdek, murakkab psixologik holatlarda o‘quvchini maktab psixologiga yo‘naltirish (referal) tartibini o‘rgatish.

3. **Metodik ta’minotda:** maslahatchilar uchun yagona standart so‘rovnomalar, debat va o‘quvchilar kengashi faoliyati bo‘yicha nizomlar, metodik qo‘llanmalar hamda ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish.

4. **Tarmoq to‘garaklari tizimida:** to‘garak ochish va yuritish mas’uliyatini maslahatchi hamda maktab rahbariyati o‘rtasida taqsimlash tartibini aniqlashtirish, to‘garak o‘qituvchilariga haq to‘lash va o‘quvchilardan olinadigan badal o‘rtasidagi nomutanosiblik masalasini ko‘rib chiqish.

5. **Moddiy-texnik va moliyaviy ta’minotda:** maslahatchini alohida xona va zarur texnik jihozlar bilan ta’minlash; o‘quvchilarni rag‘batlantirish va loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatini (alohida mablag‘ yoki direktor jamg‘armasidan foydalanish tartibini) ko‘rib chiqish.

6. **Maktab jamoasi va ota-onalar bilan ishlashda:** maktab rahbariyati, o‘qituvchilar va ota-onalarga maslahatchi lavozimining maqsadi va vazifalari haqida tushuntirish ishlarini tashkil etish, shu orqali lavozimning ijtimoiy qabul qilinishini mustahkamlash.

7. **Kasbiy hamjamiyatni rivojlantirishda:** tajribali maslahatchilar (ish staji 10 yildan ortiq bo‘lganlar 38,3%) va yangi boshlovchilar (ish staji 1 yilgacha bo‘lganlar 22,2%) o‘rtasida mentorlik hamda tajriba almashish tarmog‘ini yaratish.

8. **Keyingi tadqiqotlarda:** boshqa viloyatlarda vakillik tanlanmasi asosida tadqiqot o‘tkazish, kasbiy identifikatsiyani standartlashtirilgan shkalalar bilan o‘lchash, ma’muriyat, o‘qituvchilar va ota-onalar nuqtayi nazarini o‘rganish, shuningdek, maslahatchi va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari vazifalarining o‘zaro chegarasini alohida tadqiq etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fagan T. K., Wise P. S. School Psychology: Past, Present, and Future. – 2nd ed. – Bethesda, MD: NASP Publications, 2000. – URL: https://eric.ed.gov/?id=ED462654. eric.ed.gov
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi PQ-277-son «Maktabdan tashqari ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-7730550. lex.uz
3. Brott P. E., Myers J. E. Development of Professional School Counselor Identity: A Grounded Theory // Professional School Counseling. – 1999. – Vol. 2, № 5. – P. 339–348. – URL: https://libres.uncg.edu/ir/uncg/f/j_myers_development_1999.pdf. onlinelibrary.wiley.com
4. Burnham J. J., Jackson C. M. School Counselor Roles: Discrepancies between Actual Practice and Existing Models // Professional School Counseling. – 2000. – Vol. 4, № 1. – P. 41–49. – URL: https://eric.ed.gov/?id=EJ629043. eric.ed.gov
5. Климов Е. А. Психология профессионального самоопределения: учебное пособие. – 2-е изд. – Москва: Академия, 2005. – 302 с. – ISBN 5-7695-2398-0. – URL: https://opochka.ru/node/8028. opochka.ru
6. Маркова А. К. Психология труда учителя: книга для учителя. – Москва: Просвещение, 1993. – 192 с. – ISBN 5-09-003639-X. – URL: https://lib.mgppu.ru/opacunicode/index.php?url=%2Fnotices%2Findex%2FIdNotice%3A10105%2FSource%3Adefault. Психология труда учителя- Absopac
7. Пряжников Н. С. Методы профориентационной работы в школе. – Москва: Академия, 2005. – 208 с.
8. Шнейдер Л. Б. Профессиональная идентичность: монография. – Москва: Московский открытый социальный университет, 2001. – 272 с. – URL: https://psychlib.ru/inc/absid.php?absid=15490. psychlib.ru
9. Роджерс К., Даймонд Р. Психотерапия и изменение личности / пер. с англ. – Москва: Издательство иностранной литературы, 1959. – 456 с.
10. Налчаджян А. А. Социально-психологическая адаптация личности: формы, механизмы и стратегии. – Ереван: Издательство АН АрмССР, 1988. – 262, [1] с. – URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01008760111. Search RSL
11. Реан А. А., Кудашев А. Р., Баранов А. А. Психология адаптации личности: анализ, теория, практика. – Санкт-Петербург: Прайм-ЕВРОЗНАК, 2006. – 479 с. – ISBN 5-93878-211-2. – URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01002921559. Search RSL
12. Реан А. А. Психология личности: социализация, поведение, общение. – Санкт-Петербург: Прайм-ЕВРОЗНАК; Москва: ОЛМА-Пресс, 2004. – 407 с. – URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01002395999. Search RSL
13. Реан А. А., Коломинский Я. Л. Социальная педагогическая психология: учебное пособие. – Санкт-Петербург: Питер, 1999. – 416 с. – ISBN 5-88782-424-7. – URL: https://rgub.ru/searchopac/book.php?id=BOOK%2F29024. Социальная педагогическая психология- Absopac
14. Rogers C. R., Dymond R. F. (eds.). Psychotherapy and Personality Change: Co-ordinated Research Studies in the Client-Centered Approach. – Chicago: University of Chicago Press, 1954. – URL: https://books.google.com/books?id=ogglAAAAMAAJ. books.google.com